



APPEARANCES OF MODERN STYLE IN THE STORIES OF YUSUF ATILGAN AND KHURSHID DOSTMUHAMMAD

Poshajon Kenjayeva

Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Oriental Studies,

Altundag M.

Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: The article presents a comparative study of the works of the prominent Uzbek writer Yusuf Atilgan and the renowned Uzbek writer Hurshid Dustmuhammad in the field of Turkish storytelling. In particular, the stories "Unlivable" ("Yaşanmaz") by Yusuf Otilgan and "The Man Who Passed Through Fire" ("Jim o'tirgan odam") by Hurshid Dustmuhammad are analyzed, and their common aspects are identified. Special attention is paid to the stylistic features of Uzbek and Turkish stories, the skill of creating characters, the description of spiritual processes, and the characteristics of characters, and scientific conclusions are supported by examples from the works. Emphasis is placed on the influence of prominent figures in world literature on the work of both writers. Theoretical research on the works of both writers is used as a theoretical basis.

Keywords: Uzbek storytelling, Turkish storytelling, style, modernism, comparative analysis, mental process, character.

YUSUF OTILGAN VA XURSHID DOSTMUHAMMAD HIKOYALARIDA MODERN USLUB KO'RINISHLARI

**Kenjayeva Poshajon
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,**

Filologiya fanlari doktori

Altundag M.

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi
(Toshkent, Ozbekiston)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada turk hikoyachiligining yirik adibi Yusuf Otilgan va o‘zbek adabiyotining mohir hikoyanavisi Xurshid Do‘stmuhammadning ijodi qiyosiy tadqiq etilgan. Xususan, Yusuf Otilganning “Yashab bo’lmaydi” (“Yaşanmaz”) va Xurshid Do‘stmuhammadning “Jim o‘tirgan odam” hikoyalari tahlil qilinib, ularning mushtarak jihatlari o‘rganilgan. O‘zbek va turk hikoyanavislarning uslubiy o‘ziga xosligi, qahramon yaratish mahorati, ruhiy jarayon tasviri va xarakter tabiatiga xos xususiyatlarning o‘xhash jihatlariga e’tibor qaratilib, ilmiy natijalar asarlardan keltirilgan misollar bilan asoslangan. Yozuvchilar jahon adabiyotining yirik namoyondalari ijodidan ta’sirlangani ham talqin qilingan. Ikkala adib ijodi bo‘yicha olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlardan nazariy manba sifatida foydalanilgan.

Kalit so’zlar: o‘zbek hikoyachiligi, turk hikoyachiligi, uslub, modernizm, qiyosiy tahlil, ruhiy jarayon, xarakter.

O‘zbek va turk hikoyalarini qiyosiy o‘rganishda avvalambor, yozuvchilarining uslubiy o‘ziga xosligidagi mushtarakliklarga e’tibor qaratish lozim. Chunki har bir yozuvchi uslubi o‘zi yashagan muhit, sharoit, milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar asosida shakllanadi. Adabiyot olamiga kirib kelayotgan yosh qalamkashlar o‘zining milliy adabiyotiga bo‘lgan muhabatti vositasida yuzaga kelgan ilk tuyg‘ularini ijodida namoyon eta boshlaydi. Bora-bora ijoddagi izlanishlar ularni dunyo adabiyotining nodir namunalarini o‘rganishga, anglashga chorlaydi. Bu esa har bir yozuvchining kamol topishida juda muhim bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi. Biz maqolada tilga olmoqchi bo‘lgan yozuvchilar ham aynan shunday kamolotga yetgan mohir nasrnavislar hisoblanadi. Xurshid Do‘stmuhammad va Yusuf Otilgan boshqa-boshqa millat vakillari bo‘lishiga qaramasdan, ularning ijodi, xususan, hikoyalaridagi mushtarakliklar uslub jihatdan bir-biriga yaqin ijodkorlardir. Ta’kidlaganimizdek, Xurshid Do‘stmuhammadning obraz yaratish mahorati jahon adabiyoti tajribalari yordamida shakllanganini ko‘rish mumkin. Yozuvchi hikoyalaridagi obrazlarni yaratishda F.Dostoyevskiy, Joys, Kafka, A.Kamyu, A.Ryunoskelarning tasvirlash

tajribalaridan ta'sirlanadi va bundan o'z ijodida foydalanadi. X.Do'stmuhammadning jahon adabiyoti durdona asarlaridan ta'sirlangani hikoyalarida tasvirlangan qahramonlar xatti-harakatidan yaqqol sezilib turadi.

Shuningdek, turk hikoyanavisi Yusuf Otilgan ham yirik modernist yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning birligini "Yashab bo'lmaydi" ("Yaşanmaz") hikoyasini kuzatadigan bo'lsak, yozuvchi hikoyada g'ayritabiyy hodisaning badiiy-psixologik tasvirini berar ekan, o'quvchini o'z qahramonining ruhan bemor ekaniga ishontiradi. Haqiqatan ham, ushbu qahramon qilgan ishni faqat telbagina amalga oshirishi mumkin. Ushbu qahramon bir tomondan rus yozuvchisi F.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanidagi Roskolnikovni eslatadi. Ammo uning qilmishi Roskolnikovnikidan ham o'n chandon oshib tushadi. Agar F.Dostoyevskiy qahramoni ijarachi kampirni o'ldirish uchun jindekkina asosga ega bo'lsa, Yusuf Otilganning qahramoni o'zi yaxshilik ko'rgan, yaxshi ko'rgan odamini o'ldiradi. Asarda bu jarayon shunday aks etadi:

" - Nima bo'lgan senga, kasalmisan? – dedi to'satdan.

- Yo'o'q, juda yaxshiman, - dedim.

Haqiqatan ham shunday edim.

- Javonda sharob bor, bir-ikki qadah ichsak-chi?

U javon tomonga yura boshladi. Men ham orqasidan bordim. Ortga qaytgandek tuyuldi, gandiraklayotgan ekan. O'ng qo'lim bilan to'qmoqni oldim va bor kuchim bilan boshiga urdim. Yuztuban yiqildi. Xonada dahshatli shovqin ko'tarildi. Bir oz o'tib gilam qonga bulg'andi. O'zimni shunday yengil his qildimki, bir nafasda chivinga o'xshab uchib ketardim go'yo. Endi o'zimni o'ldirsam bo'ladi." ("Neyin var senin, hasta misin? dedi birden.

Yoo, çok iyiyim, dedim.

Gerçekten de öyleydim.

- Şarap var dolapta; birer bardak içeriz ha?

Dolaba doğru yürüdü. Ben de yürüdüm. Önce donecek sandım; oysa sendeliyormuş. Havanelini sağ elime aldım; bütün gücümle vurdum başına. Yüzükoyun düştü. Odayı korkunç bir gürültü kapladı. Nice sonra dösemeye kan aktı. Öylesine yeğindim ki hop desem uçacaktım; sivrisinek gibi. Şimdi kendimi öldürebilirdim.") [1, b.60].

Yozuvchi talqiniga ko'ra, qahramondagi bunday ruhiy buzilishning asl sababchisi noqis ijtimoiy muhitdir. Go'yo atrofini faqat yovuzliklar, azob-uqubatlar,adolatsizliklar o'rab olganiga ishongan qahramon oxir-oqibat joniga qasd qilish bilan o'z hayotiga nuqta qo'yadi. "Yashab

bo‘lmaydi” hikoyasi qahramonida hayotga muhabbat tuyg‘usini shakllantiruvchi muhim tabiiy-ijtimoiy omilning yetishmasligi seziladi. Qahramon hayotda biror ko‘ngilsiz hodisa yuz berishi ehtimolligidan xavfsirab yashaydi, uning ko‘ngli xotirjam emas. Shu sababli u ham “ichki ozodlik”dan, ham “tashqi ozodlik”dan mahrumdek tuyuladi. Uning ruhiyatida hayotga emas, balki o‘limga muhabbat uyg‘onadi. Bu qahramon tabiatan tashqi olamga nisbatan shu darajada begonalashganki, o‘zini erkin his qilishi uchun pardalar tushirilib, eshiklar tanbalangan bo‘lishi kerak. Hatto xonasiga tushgan quyosh nurlari ham uning halovatini buzadi. Yolg‘iz kunlarining birida xona shiftida osilgan holatda o‘z bolalik qiyofasini ko‘radi. Bu esa undagi o‘lim orzusini junbushga keltiradi, hatto tushlarida ham shu orzu bilan yashaydi. Oqibat o‘zini osadi. Osish oldidan o‘zidan keyin qolganlar uchun shu yozuvni devorga o‘yib yozadi: **YASHAB BO‘LMAYDI.** Adabiyotshunos H.Ishiq hikoyadagi so‘nggi epizod va devordagi yozuv haqida: “Bu so‘z bilan yozuvchining dunyo, hayot yashashga arzimaydi ma’nosidagi tasavvurini anglaymiz. Alber Kamyu ham falsafaning eng katta muammosi hayotning yashashga arzish-arzimasligi, degan savol ekanligini ta’kidlagan edi. Shu jihatdan Otilgan Kamyuning tushunchasiga iqtibos keltirgan”, tarzida munosabat bildiradi.[5, b.99] Darhaqiqat, bu o‘rinda Kamyu falsafasining ta’siri sezilarli darajada ekanligi ko‘rinadi. Xurshid Do‘stmuhammadning “Jim o‘tirgan odam” hikoyasi qahramoni ham Y.Otilganning qahramoni singari ruhiy tanazzulga uchragan odamlardan biri hisoblanadi. Hech narsaga aralashmaydigan, hech qachon, hech qanday hodisaga munosabat bildirmaydigan, og‘zidan biror gap chiqmaydigan, o‘zini ehtiyoitlashdan o‘zga tashvishi yo‘q Qurbonali obrazi yangi davrning yangicha qahramonidir. Uning tabiatidagi asosiy belgi-xususiyat shundan iboratki, u o‘z qobig‘iga berkingan, boshqalardan ajralib qolgan tund inson. Unda atrofidagilarga munosabat yo‘q. Birovning xatti-harakatini tasdiq yoki inkor qilayotgani ko‘zidangina sal-pal bilinadi. U yoqtirmagan odamlarni ko‘rganda ko‘zini chirt yumib o‘tadi-ketadi. Hikoya Y.Otilganning hikoyasi singari boshdan-oyoq qahramonning o‘y-xayollarini asosiga qurilgan. Kimsan Qurbonalining fikriy olamiga ta’sir ko‘rsatib, uni anglashga urinib, qahramonda vahima uyg‘otadi. Kimsanning: “Jim o‘tirgan odam xavfli”, - deb aytgan gapi uni yanada o‘yga botiradi. Qurbonali o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoladi. Uning miyasida faqat shu gap aylanadi. Kimsanning bu gapi Qurbonalini o‘ylashga majbur etadi. O‘zi bilmagani va xohlamagani holda Kimsan qahramonimizning ichki dunyosini ag‘dar-to‘ntar qilib yuboradi.

Qurbanali tafakkuridagi o‘zgarish shundan iboratki, u asta-sekin o‘z-o‘zini taftish eta boshlaydi. Qurobonali o‘ta ehtiyotkor, har narsadan hayiqib, har kimsaga shubha bilan qaraydigan inson. Yozuvchi Qurbanali qiyofasini shunday chizadi: “*Qurbanali ...asabiylashganida lunjining pirillab uchadigan odati bor edi. Bu safar lab-lunji aralash, a’zoi badanining allaqaerlarida qaltiroq turdi. U sir boy bermoqchi emasdi, aksiga olib tili kalimaga kelmadi. Tili kalimaga kelmasa-da, gapirmoqchi edi, qandaydir kuch labining ikki burchidan siltay-siltay jag‘i tomon tortqilab nafas yo‘lini to‘sib qo‘ydi*”.[3, b.210] Hikoya qahramoni ruhiy olamida kechayotgan bu g’alayonlar kutilmagan vaziyat tufayli yuz bergen. U ichki dardlarini hech kimga aytmaganidan, shu ko‘yga tushadi. Keyinchalik xohlasa ham gapira olmay qoladi. Insonning tabiat o‘ziga bo‘ysunmay qo‘yishi katta fojea. Qurbanali shu jarayonni boshidan o‘tkazayotgan kishi obrazi bo‘lib, bora-bora bu narsa ruhiy xastalikka aylanadi. O‘zini-o‘zi boshqara olmaydi, holatini atrofdagilarga tushuntira olmaydi. Yozuvchi hikoyada qahramonning tabiatini, xatti-harakatlarini hayotiy aks ettirishga erishgan.

Bir jamiyatda yashab turib, undan chetda bo‘lishga intiladigan Qurbanali atrofidagi odamlardan qochib, o‘z-o‘zi bilan muloqotda bo‘lishga urinadi. U odamlardan qochadi, tanish-notanishning qorasi ko‘rinsa, hol-ahvol so‘rashmasdan ham juftakni rostlab qolishga urinadi. Fikri-xayoli ishiga borib-kelguncha hech kimni yo‘lda uchratmaslik tashvishi bilan band. Hikoyada tashqi ta’sirlardan ruhan ezilgan, qiynalgan, dardini kimga aytishni bilmay, portlash darajasiga yetgan Qurbanalining ruhiy iztirobga dosh berolmasdan yotib qolishi ishonarli ko‘rsatilgan. Qahramon ichini tinmay tirnayotgan savollar, biri-biridan ko‘ngilsiz qator-qator taxminlar uni qynoqqa soladi. O‘z tuyg‘ularini anglay olmayotgan, o‘zini tushunishga urinayotgan odamning holati hikoyada juda ta’sirli tasvir qilinadi:

“-Eng qiyinidan o‘tib oldik...

-O‘t...dik...o‘t-tib ol-l-yap...m...

Qurbanali shunday deb katta, keng, ravon va serqatnov ko‘cha tomon o‘girildi. Marmar zinaga oyoq uzatgan chog‘i chap kifti birdan qo‘rg‘oshin qoplaganday og‘irlashdi, bunday zil-zambil yukni ko‘tarib, qad tutib turishga inson bolasi ojizlik qilardi”[3, b.222] Bu tasvir atrofni ko‘rishni istamagan, boshqalar bilan muloqot qilmagan odamning ruhiyati qachondir uning o‘zini yemirib bitirishi mumkinligi yaqqol namoyon qiladi.

Yu.Otilganning “Yashab bo‘lmaydi” hikoyasi qahramoni esa jamiyat tomonidan masxara qilinadi, g‘ururi yerga uriladi. Oиласида ота tomonidan, maktabda o‘qituvchilar tomonidan, ko‘cha-ko‘yda esa tengdoshlari tomonidan ketma-ket “ruhiy zarba” larga duch keladi. Uning tabiatida jamiyatga yoqmaydigan asosiy belgi-xususiyat shundan iboratki, u ham X.Do‘stmuhammadning qahramoni singari o‘z qobig’iga berkingan, boshqalardan ajralib qolgan tund inson. Hikoya voqealari bevosita bosh qahramon tilidan bayon etiladi. Bu esa voqealarning bir oz sub’ektiv talqinini yuzaga keltiradi. Ammo qahramonning o‘ziga tegishli ichki holatlarni ham ochiq-oydin bayon etishi hikoya haqqoniyligini oshiradi.

Yuqorida aytganimizdek, qahramon doimiy xo‘rliklar, turkilar ichida yashaydi. Bir gal u chiroyli ayolga qaragani uchun yonidagi kishidan musht yeb, yerga yiqiladi. Ammo boshqa bir notanish kishi unga yordam beradi, atrofda yig’ilib masxara qilayotgan odamlarni nari haydaydi. Bu mehribon kishining ismi Ali edi. Ali uni “xona”siga olib kelib, yuzidagi qonlarni artadi. Shu yerda qahramon psixologiyasida nosog’lom, g’ayritabiiy bir o‘zgarish yuz beradi. U o‘z najotkorini yaxshi ko‘rib qoladi. Aynan uni yaxshi ko‘rgani bois kishi bilmas uyiga borib o‘ldiradi. Hikoya qahramonini bunday mudhish jinoyat qilishga undagan mantiq bitta edi. Uningcha, vahshiy, yovuz, begona odamlar yashaydigan bu jamiyatda Ali singari yaxshi odamlar yashashga qiynaladi. Ularni bunday azobdan qutqarish kerak. Buning chorasi esa o‘ldirish. Yu.Otilgan ushbu hikoyasida boshqa barcha hikoyalariidan murakkabroq, mantiqiy yechimsiz muammoni ko‘taradi.

Bizga ma’lumki, 70-80-yillarda turk zamonaviy adabiy jarayonida g‘arb modernizmi, avangard adabiyotiga qiziqish kuchaygani kuzatiladi. J.Joys, J.-P.Sartr, A.Kamyu, F.Kafka, V.Vulf asarlari o‘rganildi va tarjima qilindi. Modernizm estetikasiga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganila boshlandi. “Turk hikoyachiligidagi 1970 yillardan keyin G‘arb hikoyachiligi ta’siridagi modernistik, postmodernistik tushunchalar yuzaga keldi; bilvosita an’anaviy hikoyalardan ancha farqli yangicha hikoya shakli paydo bo‘la boshladi”, deb yoziladi bu haqda I.Cheshitli, Y.Balji, E.Kolachlar hamkorlikda yozgan tadqiqotda.[7, b.49] Zamonaviy turk hikoyachiligidagi 60-yillardan boshlab, janrning yangicha ifoda shakllarini izlash natijasida ijodkorlar qisman bo‘lsa ham modernizmning ba’zi xususiyatlaridan foydalandilar. Adabiyotshunos I.Kulohlio‘g‘lining fikricha, “Ularning birinchisi yozuvchi Yusuf Otilgan hisoblanadi”.[6, b.364] “Yusuf Otilgan bizda modernistik adabiyotning

yo‘lboshchilaridan bo‘lgan va o‘zi yashagan davrdagi yozuvchilarga nisbatan ancha farqli mavzularda, uslubda roman va hikoyalar qalamga olgan yozuvchidir”, deya uning fikrini davom ettiradi yana bir turk adabiyotshunosi B.Gungo‘r.[2, b.14] Haqiqatan ham, Yu.Otilganning “Katak tashqarisidagi olam” (“Kümesin Ötesi”), “Yashab bo‘lmaydi” (“Yaşanmaz”), “Chiqa olmagan” (“Çıkılmayan”), “Uydagi” (“Evdeki”), “Soatlar tiqirdisi” (“Saatlar Tıkırtısı”), “Kalta minoradan boshqa” (“Bodur Minareden Öte”) singari hikoyalarida yangi shakl izlanishlariga duch kelamiz. U “Bekorchi odam” (“Aylak Adam”, 1959) va “Ona yurt mehmonxonasi” (“Anayurt Oteli”, 1973) nomli romanlari bilan tanilgan yozuvchi bo‘lib, tirikligida “Kalta minoradan boshqa” (“Bodur Minareden Öte”, 1960) nomli yagona hikoyalar to‘plamini nashr ettirdi. Vafotidan keyin barcha hikoyalari jamlanib “Amaliyotchi” (“Eylemci”, 1993) nomli asari chop qilindi. Adib o‘z hikoyalarida an’anaviy va zamonaviy hayot o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni, shaxs ruhiyatida namoyon bo‘lgan tangliklarni va turli sabablar bilan yuzaga kelgan ziddiyatlarni qalamga oladi. “Jumhuriyat davri turk nasri” kitobida Yu.Otilgan haqida shunday fikrni o‘qiyimiz: “Barcha mavzularning ortida inson hayotini ostin-ustun etgan modernizm ta’siri bor”.[7, b.45]

Yusuf Otilganning aksariyat qahramonlari hayotdan norozi, erkinlikka, mustaqillikka intiluvchan, atrofidagi hissiz, tuyg’usiz odamlardan bezigan inson obrazlaridir. Bu qahramonlar odamlardan uzoqlashgisi, o‘z “ichki olami”da yashagisi keladi.

Hikoyalar tahlili natijasida ko‘rinadiki, ikkala yozuvchining ijodiga ham jahon adabiyotining ta’siri kuchli. Shu boisdan ularni ko‘proq inson ichki dunyosida kechayotgan jarayonlar tasviri qiziqtiradi. Voqeа, muammoga nisbatan ruhiy jarayonni ifodalash ustuvor o‘rinda turganligi yaqqol aks etadi. Hikoyalarda asar bosh qahramonlarining tabiatiga mos ravishda dialogga nisbatan monolog ko‘proq uchraydi. Nimagaki, yozuvchilar qahramon ruhiyatini tasvirlashda uning ichki olami imkoniyatidan kelib chiqib ish ko‘rgan. Shu sababli ham qahramonlar ko‘nglida kechayotgan hissiyotlarni kitobxonga yetkazish uchun monologdan samarali foydalanishgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Yu.Otilgan va X.Do‘stmuhammad ijodi hikoya janri an’analarini yangilashi, unga yangi obrazlar, yangicha bayon shakllarini olib kirishi bilan o‘ziga xos hisoblanadi. Xususan, ularning ijodiga jahon adabiyotining ta’siri borligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda an’anaviy nosirlardan farqli o‘laroq, Xurshid Do‘stmuhammad va Yusuf Otilganni ko‘proq inson ko‘nglida

kechayotgan jarayonlar tasviri qiziqtiradi. Voqeani emas, voqelikka nisbatan ichki psixologik munosabatni ifodalash ustuvor o'rinda turadi. Zero, Xurshid Do'stmuhammadning o'zi ta'kidlaganidek: "Meni ko'proq asar voqealarining tafsiloti emas, o'sha voqealarning qahramon qalbi, shuuridagi in'ikosi qiziqtiradi".[4, b.33] Shuningdek, adib o'qimishli bir ijodkor sifatida jahon adabiyotini yaxshi biladi, shu bilan birga, olim sifatida hikoya nazariyasidan ham xabardor, bu haqda ilmiy tadqiqot ham qilgan. Shu sababdan u so'nggi davrdagi hikoyalarida ancha tasvir mukammalligiga erisha olgan.

Yu.Otilgan hikoyalarida qahramon xatti-harakati asosan, ilojsiz, majbur, mahkum, qiyngagan, hayotda ko'p narsalar cheklab, taqiqlab qo'yilgan vaziyatlar fonida aks ettiriladi. Bu yozuvchining jamiyat va inson, odam va uning hayoti mazmuni haqidagi kuzatishlarining badiiy natijasidir. Yu.Otilgan tomonidan yangi turk hikoyachiligiga olib kirilgan modern uslubi na G'arb modernizmi, na zamonaviy turk nasri an'analarini takrorlamasligi bilan o'ziga xosdir. Bunday o'ziga xoslik o'zining mental xususiyatlarini zamonaviy usulda namoyon etgan sharqona modern uslubida o'z aksini topdi.

Adabiyotlar:

1. Atılgan Y. Bütün Öyküleri. Yapı Kredi Yayınları. İstanbul-2002.
2. Güngör B. Yusuf Atılgan'ın hayatı, Eserleri ve Fikirleri (1921-1989). Yüksek Lisans Tezi. Marmara Üniversitesi, İstanbul-2014.
3. Дўстмуҳаммад Ҳ. Беозор қушнинг қарғиши. -Т.: “Шарқ”, 2006.,
4. Дўстмуҳаммад Ҳ. Мушоҳада бўлган жойда бадиий адабиёт бўлади... (П.Кенжаева билан сухбат) // Ўзбекистон матбуоти. 2007. 5-сон.
5. Işık H.C. Türk Öykücülüğünde 1950 Kuşağı ve Varoluşculuk. Yüksek Lisans Tezi. T.C. Celal Bahar Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Manisa-2008.
6. Külahlıoğlu İ.A. Yeni Türk Edebiyatı (1839-2000). Edit. Ramazan Korkmaz. Ankara-2015.
7. Çetişli İ, Balcı Y, Kolaç E. Cumhuriyet Dönemi Türk Nesri. Anadolu Üniversitesi. Eskişehir-2012.